

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.E.Toshmurodov	
Yosh kurashchilarning harakat ko'nikmalarini shakllantirishda tayanch-harakat apparati harakatchanligini rivojlantirish metodikasi	107
J.M.Hamrakulov	
“Tutorlik faoliyati asoslari” fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash.....	114
D.S.Abdugodirov	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik jihatlari	117
R.A.Jo'rayeva, M.A.Hojiyeva	
Bo'lajak filolog-mutaxassislarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish – malakali mutaxassislar tayyorlash omili	120
G.I.Otaboyeva, Z.G.Mamataliyeva	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda texnologik yondashuv	123
O.X.Rashidova	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish	126
Z.D.Rasulova	
Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish	131
H.Э.Юлдашева	
Эффективные формы и методы развития профессиональной компетентности учителей физического воспитания	136
Е.М.Любимова, А.И.Кудряшова, М.К.Ахмадалиева, К.Д.Патидинов	
Обучение цифровым инструментам и ресурсам студентов - бакалавров педагогического образования	139
Sh.G'.Xasanov	
Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modeli	145
M.I.Ne'matov	
Bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	152
I.X.Turdiboyev	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash bo'yicha ayrim mulohazalar	160
	IQTISODIYOT
X.X.Бозаров	
Совершенствование научно-методических основ развития малого бизнеса в условиях инновационной экономики	164
	FALSAFA
N.S.Badridinova	
XVII – XVIII asrlarda Movarounnahrda falsafiy va tasavvufiy qarashlar	171
B.B.Dehqonov	
Bahouddin Naqshbandning inson kamoloti haqidagi qarashlari.....	175
O.R.Sultonova, S.S.Sadullayev	
Qishloq yoshlarini iqtisodiyot tafakkurini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning o'rni va ahamiyati	180
I.J.Jabborov	
Shayx Najmiddin Kubro ruboiylarida ishq falsafasi	184
G.N.Navro'zova	
Xoja Ahror Valiy o'zlikni anglash xususida: qiyosiy-falsafiy tahlil	187
M.E.Xujamov	
Yangilanayotgan O'zbekistonda ilmiy-axloqiy qadriyatlarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni.....	191
F.A.Ibroximov	
Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda aholi huquqiy madaniyatining ahamiyati	197



UO'K: 821.161.1

SHAYX NAJMIDDIN KUBRO RUBOIYLARIDA ISHQ FALSAFASI**ШЕЙХ НАДЖМИДДИН КУБРО ФИЛОСОФИЯ ЛЮБВИ В РУБАИ****SHEIKH NAJMIDDIN KUBRO PHILOSOPHY OF LOVE IN RUBAI****Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich**

Xorazm viloyati "Ma'mun universiteti" NTM, "Falafa" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tasavvuf ta'limotining ilmiy-falsafiy asoslari, tasavvuf g'oyalarining ezgulikka yo'g'rilganligi, inson ma'naviy kamolotida kubroviya g'oyalarining ahamiyati, Haqsevarlik, nafs tabiyasida Najmiddin Kubro g'oyalarining o'rni, kubroviya ta'limotida insonning ilohiy ishqqa moyil bo'lishi, ishq hamda oshiq atamalarining falsafiy tahlili bayon qilingan. Shayx Najmiddin Kubro fors tilida yozgan ruboiylari 40 taga yaqin bo'lib, ushbu maqolada shulardan 4 tasini falsafiy jihatdan izohlanilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются научно-философские основы учения суфизма, направленность идей суфизма на благо, значение идей Кубравия в духовной зрелости человека, место идей Наджмиддина Кубра в природе самосознания. Праведность, божественная природа человека в учении Кубравии склонность к любви, описывается философский анализ терминов любовь и любовник. Шайх Наджмиддин Кубра написал около 30 рубаи на персидском языке, и 4 из них объясняются философски в этой статье.

Abstract

This article discusses the scientific and philosophical foundations of the teachings of Sufism, the orientation of the ideas of Sufism for the good, the significance of the ideas of Kubraviya in the spiritual maturity of a person, the place of the ideas of Najmiddin Kubra in the nature of self-consciousness. Righteousness, the divine nature of man in the teachings of Kubraviya is a propensity for love, a philosophical analysis of the terms love and lover is described. Shaykh Najmiddin Kubra wrote about 40 rubais in Persian and 4 of them are explained philosophically in this article.

Kalit so'zlar: tasavvuf, shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat, ishq, oshiq, jazba, shayx, valiy, avliyo, darvesh, so'fiy, talab, tolib, solik

Ключевые слова: суфизм, шариат, тарикат, просветление, истина, любовь, страсть, шейх, хранитель, святой, дервиш, суфий, талаб, талиб, путь

Key words: Sufism, sharia, tariqat, enlightenment, truth, love, passion, sheikh, guardian, saint, dervish, Sufi, talab, talib, way.

KIRISH

Xorazm zamini azal-azaldan ulug' insonlar, avliyolar, olim-u ulamolar va faylasuflar yurtidir. Xiva shahrida tug'ulib, voyaga yetgan, dong'i yetti iqlimga ketgan Shayx Najmiddin Kubro (1145-1221y) XII-XIII asrlarda tasavvuf falsafasiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan, kuroviya tariqatiga asos solgan allomalardandir. Asl ismlari Ahmad ibn Umar bo'lib, yoshligidan ilmga juda chanqoq bo'lgan va zamonasining juda ko'plab ulamolaridan ilm olgan. U zot hayotlari davomida ilm talab qilishdan to'htamagan, xatto Xorazm diyorida zamondosh bo'lgan olimlarning barchasining ilmidan ko'ngli taskin topmagan. Ilmga bo'lgan chanqoqligi sababidan ko'pgina musulmon mamlakatlarida, jumladan Bog'dod, Basra, Misr, Nishopur, Difiiz, Isfahon singari ko'plab mamlakatlarda bo'lib ilm tahsil qilgan.

Manbalardan bizga ma'lumki, Najmiddin Kubro zamonasining qaysi olim-u ulamosi bilan baxs, munozaraga kirishsa, albatta g'olib bo'lgan ekan. Shu sababli u zotga "Attomatul-kubro" (Ulug'lar ulug'i, buyuk, ilm balosi) nomlari berilgan. Jumladan, hazrat Alisher Navoiy bobomiz "Nasoyimul-muhabbat" u zot haqida bunday deb yozganlar: "Alarg'a Kubro andin laqab bo'ldiki har kim bilakim munozara va mobohasa qilsalar ermish – ul kishiga g'olib bo'lurlar ermish"[1,287].

Shayx hazratlarining ikkinchi ismlari "Shayxi Valitarosh", ya'ni valiy tarbiyalab yetishtiruvchi bo'lgan. Chunki, u zot vajdiy holatlarida nazarlari kimga tushadigan bo'lsa valiylik darajasiga

FALSAFA

yetishgan ekan. Shuning uchun ham ushbu tariqatning yana bir nomi “Tariqati zahabiya” (oltin tariqat) deb nomlangan. Shayxning tabiri bilan aytganda “Har qanday tuproqni kimyo qilamiz”[2]. Binobarin u kishidan ta’lim-tarbiya olgan shaxslar o’sha zamonning eng yetuk olim, fozil va orif kishilari bo’lib yetishganlar. Jumladan, Shayx Majiddin Bag’dodiy, Shayx Sa’diddin Hamaviy, Bobo Kamol Jandiy, Fariduddin Attor, Shayx Roziddin Ali Lola, Shayx Sayfiddin Boxarziy, Shayx Najmiddin Roziy, Shayx Jamoliddin Geyli hamda Mavlono Bahouddin Valad (Jaloladdin Rumiyning otalari) va boshqa buyuk tasavvuf namoyondalari buyuk shayxdan ta’lim olgan, u zotning maktabini o’tagan allomalar bo’lishgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Hazrat Najmiddin Kubro qalamlariga 40 ga yaqin fors tilida yozilgan ruboiylar to’plami xos bo’lib, ushbu maqolada shulardan ayrimlarinigina falsafiy jihatdan izohlashga jazm qildik. Najmiddin Kubro yozgan ruboiylarni o’qir ekansiz, u zotning badiiy yo’l bilan ifoda etilgan falsafiy qarashlari bilan tanishasiz. Zero kubroviya ta’limotining asosini axloqiy poklik, ma’naviy yuksaklik tashkil qiladi. Ruhni yuksaltirish, botiniy poklik, nafsni tarbiyalash, imyon yo’lidan yurish hamda Haq ma’rifatini hosil qilish – ushbu tariqatning asosiy omillaridan biri ekanligi ma’lum bo’ladi.

Shayx hazratlari Alloh ishq bilan yongan kishi uchun ishqdan boshqa murod yo’qligini, ishq yuksalish yo’li ekanligini ta’kidlab, yozadilar:

**Ishq sharbatin ichgali xummor bo’ldim,
Hijronning oyoq ostida ko’p xor bo’ldim.
Tutdi qo’limdan ul, ulug’vor bo’ldim,
Xullasi yo’q edim, mana, bor bo’ldim[3].**

Barcha tasavvuf tariqatlari zamirida Alloh ishq bilan yonishga da’vat yotadi. Xudoga yetishish – ulug’likka qovishish demakdir. Shayx hazratlari Yaratuvchi ishq yo’lidagi dardni, ishq dardini insonni inson qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblaydi. Biroq ishq yo’li oson, tekis va silliq emas. Uning mashaqqatlari, xijronlari, uqubatlari bisyordir. Bu yo’lga kirgan inson pokizalik, go’zallik, ulug’vorlik dunyosiga erishmoq uchun qat’iyatli bo’lishi, “talab yo’liga tez yetmoq” uchun boridan kechishi lozimligini uqtiradi.

**Sendan bu ko’ngil mosuvo bo’lg’aymu,
Hech o’zga bilan yo oshno bo’lg’aymu.
Do’stingda qolurmi o’zga hech bir do’st, ayt,
Yo o’zga ko’y unga hech ravo bo’lg’aymu[2].**

Bu yo’l muhabbat ahlining yo’lidir va muhabbat zuhdning muqobilidir. U Haqqa bo’lgan jazbani (o’zdan begona bo’lish) ifodalaydi. Muhabbatning shiddati-yu quvvati ortishi bilan ishq maydonga keladi. Bu yo’lga kirganlar juda qattiq sinov, imtoxonlarga duch kelishgan. Shunday bo’lsada, Najmiddin Kubro Allohga qarata “Jamoling menga bas!” - deya xitob qiladi. Ya’ni, men faqat Seni Jamolingni istayman, boshqa barchasi menga begona deya jar oladi. Shuning bilan birga, ishq dardi, xijron dardi insonni haqiqiy komillikka etishmog’i uchun asosiy omili ekanligini ta’kidlagan holda:

**Ishq dardi g’arib tanimdagi jon bo’lg’ay,
Dard cheksa kishi axiyri inson bo’lg’ay[2],** deydi.

Najmiddin Kubro o’zining “Usuli ashara” (Tasavvufning o’nta usuli) asarida quyidagilarni yozadi: “Ikki yorug’lik bor. Biri Allohdan boshqa butun borliqlardan yuz o’girtirsa, ikkinchisi Unga yuz qaratadi. Bu ikkovining orasiga nori ishq (ishq otashi) kirsas, xas-xashakka o’xshab qolgan insonning dunyo bilan bo’lgan bog’larini yoqib kul qiladi”[2]. Jumladan quyidagi ruboiyga e’tibor qarating:

**Tolibki, talab yo’liga tez etmak shart,
Bohqasidan qo’lni yuvib ketmak shart.
Elga shifo baxsh etu och ko’zlarini,
Olam hama – UI, unga nazar etak shart[3].**

Tasavvuf ishq maktabi, muhabbat mazhari, oshiqning yuradigan yo’li. Holbuki, tasavvuf peshvolari – Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Mavlono Jaloladdin Rumi singari juda ko’plab tasavvuf ahli ilohiy ishq va muhabbatga g’arq bo’lgan zotlar ya’ni, Allohning oshig’i bo’lgan kishilardir. Shu boisdan mashhur mutasavvuf shoir Jaloladdin Rumi hazratlari o’zini so’fiy deb emas, balki oshiq deb atagani bejiz emas.

Muqaddas Qur'oni Karimda ahli dunyo, ya'ni dunyoni sevgan insonlar qoralanadi, tanqid qilinadi. Haqiqiy oshiq na dunyo va na oxirat ta'masida bo'lmasdan, balki Allohning zoti, uning jamolini ko'rish ishtiyoqi talabida bo'luvchi zotdir. Vaholanki, oyati karimada:

يريدون الله وجه الله (Allohning zotini, jamolini xohlaydilar) deya "An'om" surasi, 52-oyatda marhamat qilinadi. Boshqa juda ko'plab oyati karimalar va hadisi shariflar mavjud. Ularning barchasi ilohiy ishq-muhabbatga dalolat qiladi. Binobarin, ishq bo'lmasa, ma'shuq bo'lmas. Bu faqat oshiq insonlargagina muyassar bo'lgan saodatdir. Ishqdan bexabar, sevgiga begona odamlarning ishi shu boisdan ham hech qachon mukammal, to'kis bo'la olmaydi[5].

**Borgan sari ishq jabri ila chokdirsan,
Rasvosan, ey dil, dard ila g'amnokdirsan.
Ishq otash axir, senki somonsan, suv yo'q,
Bir lahza lovullaysan-u so'ng – xokdirsan[6].**

Darhaqiqat, ilohiy ishq bor narsa va shu boisdan, tasavvuf Qur'oni Karimning hayotdagi amalda qo'llanishi, tatbiq qilinishidir. Zero, tasavvuf rasulimiz Muhammad (s.a.v.)ning hayotlari va u zot tarbiyalagan sahobai kironing axloqidir.

XULOSA

Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf falsafasining asosiy bo'g'ini bo'lgan kubroviya ta'limoti garchi o'n asrlar oldin paydo bo'lgan bo'lsada, bugungi kun ijtimoiy hayotimizda komil insonni tarbiyalashda o'zining beqiyos ahamiyatiga egadir. Zero tasavvuf – nafs tarbiyasi, insonning o'z vijdonini tarbiyalashi, nafsini qo'lga olishi, Haqni sevishtirishga intilishi, bir lahza bo'lsin Haqning yodidan uzoqlashmasligidir. Inson mana shu darajaga eta olsagina komillik sifatlarini kasb qiladi va insoniyat jamiyatiga o'zining ezgu amallari bilan xissa qo'shuvchi manfaatli shaxslardan biriga aylanadi. Bugungi yosh avlodni vatanga muhabbatli qilib tarbiyalashda, hayotda uchraydigan og'ir, sinovli damlarda sabr-bardoshli, matonatli, odamlardan yaxshiligini ayamaydigan shaxs qilib shakllantirishda kubroviya ta'limotining o'rni har jihatdan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. A. Mansur. Toshkent. "Cho'lpon" 1992 y.
2. Shayx Najmiddin Kubro. Jamoling menga bas!. Toshkent, "G'ofur G'ulom" 1994 y.
3. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT.17-tom. – Toshkent: Fan. 2001. – B. 287.
4. Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. Toshkent. "Movarounnahr" 2004 y.
5. Evgeniy Bertel's. Najmiddin Kubro. Muloqot jurnali, 1995y ¼ s.
6. Mahmud As'ad Jo'shon. Yunus Emro va tasavvuf. Toshkent. "Fan", 2001 y 12-13-b.